



MAMLAKATIMIZNING JSTGA A'ZO BO'LISHIDAGI MAVJUD TO'SIQLAR VA ULARNING BARTARAF ETISH YO'LLARI

Qodirov Sardor Zafar o'g'li

e-mail: sardorkodiriy@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashish va Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga harakat qilmoqda. JSTga a'zo bo'lish mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim strategik qadamlardan biri bo'lib, bu jarayon orqali O'zbekiston xalqaro savdo tizimining ishonchli ishtirokchisiga aylanishi mumkin. Biroq, JSTga a'zo bo'lish jarayonida O'zbekiston qator iqtisodiy, huquqiy, institutsional va texnik to'siqlarga duch kelmoqda. Ushbu maqolada O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonida duch kelayotgan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali yo'llar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Jahon Savdo Tashkiloti (JST), import, eksport, bojxona stavkalari, tarif stavkalari, xalqaro savdo.

БАРЬЕРЫ НА ПУТИ ПРИСОЕДИНЕНИЯ НАШЕЙ СТРАНЫ К ВТО И ВОЗМОЖНЫЕ ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Аннотация: Республика Узбекистан стремится ускорить процесс интеграции в международную торговую систему и присоединения к Всемирной торговой организации (ВТО). Вступление в ВТО является одним из ключевых стратегических шагов для экономики страны, поскольку это позволит Узбекистану стать надежным участником глобальной торговой системы. Однако в процессе присоединения Узбекистан сталкивается с рядом экономических, правовых, институциональных и технических препятствий. В данной статье анализируются основные проблемы, с которыми сталкивается



Узбекистан на пути к членству в ВТО, а также рассматриваются эффективные пути их преодоления.

Ключевые слова: Всемирная торговая организация (ВТО), импорт, экспорт, таможенные пошлины, тарифные ставки, международная торговля.

THE EXISTING OBSTACLES TO OUR COUNTRY'S ACCESSION TO THE WTO AND THE WAYS TO OVERCOME THEM

Abstract: The Republic of Uzbekistan is striving to accelerate its integration into the international trading system and its accession to the World Trade Organization (WTO). Joining the WTO is one of the key strategic steps for the country's economy, as it would enable Uzbekistan to become a reliable participant in the global trading system. However, during the accession process, Uzbekistan faces a number of economic, legal, institutional, and technical challenges. This article analyzes the main issues encountered by Uzbekistan in the process of WTO accession and explores effective ways to overcome them.

Keywords: World Trade Organization (WTO), import, export, customs duties, tariff rates, international trade.

Kirish

Mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lishidagi eng katta va asosiy to'siqlardan biri bu savdo siyosati va bojxona tartibotlari hisoblanadi

2023-yil holatiga ko'ra:

- O'zbekistonning o'rtacha bojxona tarif stavkasi 14,8 foizni tashkil qiladi (JST talablariga ko'ra, aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun o'rtacha 8-10 foiz);
- ayrim import mahsulotlariga 30 foiz dan yuqori bojxona stavkalari qo'llaniladi, bu JST normalariga zid keladi;



– xalqaro savdo tartibotlarini soddalashtirish borasida yetarlicha islohotlar amalga oshirilmagan, natijada eksport-import jarayonlari ortiqcha rasmiyatchilik talab qiladi.

Asosiy qism

O‘zbekiston respublikasi mustaqilligi dastlabki yillari davomida mamlakatimizda milliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab quvvatlash maqsadida yopiq iqtisodiy modeldan foydalanilgan, ya’ni proteksionizm siyosati amalda yuritilgan. Bu esa avtomatik ravishda import tovarlariga bo‘lgan yuqori davlat bojlarini talab qiladi va natijada mamlakatimiz uchun xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyati pasayib ketgan. Yillar o‘tib bu qaror kutilganidek natija bermadi va davlatimiz iqtisodiy jihatdan tezroq fursatda rivojlanishi uchun va xalqimizning turmusht tarsi yaxshilanishi uchun 2017-yildan boshlab yurtimizda ochiqlik siyosati yuritila boshladi. Xalqaro tashkilotga jumladan jahon savdo tashkilotiga qo‘shilish harakatlari jadallashdi va shaxsan yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonlaridan qo‘llab quvvatlandi. Biroq, o‘tgan yillar mobaynida mamlakatimizda qo‘llanilgan yopiq iqtisodiy model natijasida bir qator JSTga qo‘shilish imkonini cheklaydigan to‘siqlar vujudga kelgan edi.

1-jadval

Bojxona va tarif stavkalari (JST standartlariga muvofiq)¹

Ko‘rsatkich	JSTga a‘zo bo‘lishdan oldin (foiz)	JST talablariga mos (foiz)
O‘rtacha bojxona stavkasi	14.8	8-10
Ayrim import tovarlariga boj	30+	15
Texnik to‘siqlar	Yuqori	Pasaytirilgan

¹ <https://www.wto.org/>



Bu to'siqlarni bartaraf etishning bir qator yo'llari taklif qilishimiz mumkun, ularga quyidagilar misol bo'la oladi:

- bojxona stavkalarini pasaytirish va JST talablariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish;
- elektron bojxona tizimini joriy etish, bojxona jarayonlarining shaffofligini oshirish va ortiqcha rasmiyatchilikni bartaraf etish;
- xalqaro savdo tartibotlarini soddalashtirish, JST qoidalariga mos qonunchilik islohotlarini amalga oshirish.

Yana bir dolzarb muammolardan biri bu davlat subsidiyaliridir. Davlat subsidiyalari sog'lom raqobat muhitini buzilishiga sabab bo'ladi va boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Ayrim sohalar, xususan, qishloq xo'jaligi va sanoat JST qoidalariga zid tarzda davlat subsidiyalaridan foydalanmoqda. 2023-yilda qishloq xo'jaligi subsidiyalari mamlakat YAIMning 2,5 foizini tashkil etdi. Bunday subsidiyalar faqatgina raqobat muhitini buzibgina qolmay davlatimiz budjetiga ham zararli hisoblanadi. Agarda biz sog'lom raqobat tizimiga o'tib, proteksionizm siyosatidan voz kechsak davlat subsidiyalaridan ortib qolgan summalarni boshqa ijtimoiy sohalarga yo'naltirib aholi turmush tarzini yaxshilanishiga sabab bo'lgan bo'lamiz. Ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida davlat tomonidan ayrim import tovarlariga texnik cheklovlar qo'llanmoqda. Jahon Savdo Tashkilotiga qo'shilimizda yuzaga kelayotgan eng katta to'siqlardan biri ham albatta bu no'to'g'ri va sog'lom bozor tamoyillariga asoslanmagan subsidiyalash tizimidir

Ushbu muammoni bartaraf etishning bir necha yo'llarini o'ylab chiqshimiz mumkin va ulardan asosiylari deb quyidagi yechimlarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

- subsidiyalarni JST qoidalariga moslashtirish va ularni samaradorlikka asoslangan shaklda taqsimlash;
- xususiy sektorni rivojlantirish va erkin bozor mexanizmlarini qo'llash orqali iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;



– huquqiy va institutsional islohotlar.

O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishidagi yana bir to‘siq huquqiy va institutsional tizimning JST standartlariga to‘liq mos kelmasligidir. 2023-yilda, Intellektual mulk huquqlarini buzish bilan bog‘liq 1500 dan ortiq holatlar qayd etilgan. Xalqaro investitsiya shartnomalariga muvofiq huquqiy islohotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Bu to‘siqlarni Bartaraf etish uchun bir necha yo‘llarni taklif etishimiz mumkin:

– intellektual mulk huquqlarini mustahkamlash va JST talablariga mos qonunchilikni ishlab chiqish;

– huquqiy muhitni JST standartlariga moslashtirish, shaffoflikni oshirish va investorlarning huquqlarini kafolatlash.

Ushbu takliflarga amal qiladigan bo‘lsak nafaqat chet ellik investorlar uchun balki mahalliy tadbirkorlarimiz uchun ham foydali islohot bo‘ladi deb o‘ylayman.

Texnik standartlar va sertifikatziya masalalari ham JSTga a‘zo bo‘lishimiz uchun va shuningdek iqtisodiyotimiz rivojining oyog‘iga bolta urayotgan muammolardan hisoblanadi.

O‘zbekiston mahsulotlarining xalqaro standartlarga mos kelmasligi eksport salohiyatini cheklaydi. 2023-yilda eksport qilinadigan mahsulotlarning atigi 35foiz xalqaro standartlarga mos kelgan. Mahsulotlarning xalqaro sertifikatziyadan o‘tish jarayoni murakkab va qimmatga tushadi. Jarayonda keraksiz talablar haddan tashqari ko‘payishiga yo‘l qo‘yilgan va bilaks, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar kechiktirilgan.

Bu muammoni bartaraf etish uchun ham amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan bir qator chora-tadbirlar mavjud, ularga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

– texnik reglamentlarni JST talablariga moslashtirish;



– mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro sertifikatziya tizimlariga integratsiya qilish. Agar integratsiyalash jarayoni muvaffaqiyatli amalga ohsa, avtomatik ravishda sertifikatziya tizimimiz sodda va shaffof ishlay boshlaydi.

Raqobatbardoshlik va innovatsiyalar O‘zbekiston JSTga a‘zo bo‘lishi uchun mahalliy korxonalar xalqaro bozorga tayyor bo‘lishi kerak. 2023-yilda O‘zbekiston Global Innovatsion Indeksida 132 ta mamlakat orasida 93-o‘rinni egalladi. Mahsulotlarning xalqaro raqobatbardoshligi past bo‘lib, eksportda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tovarlar ulushi atigi 20foiz ni tashkil etdi.

Raqobatbardoshlik va inovatsiyalarni rivojlantirish uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan takliflarga quyidagilarni misol keltirsak bo‘ladi:

- innovatsion rivojlanishga sarmoya kiritish;
- kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash va ularga JST bozoriga moslashish uchun texnik yordam ko‘rsatish.

Shuningdek qonunchiligimizdagi ba‘zi bir huquq va normativlar ham JST talablariga mos kelmaydi. Ta’kidlash lozimki, milliy qonunchilikni JST bitimlariga uyg‘unlashtirish ushbu tashkilotga a‘zo bo‘lishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimizning qaroriga munosib Adliya vazirligiga milliy qonunchilikning JST bitimlariga uyg‘unligini ta’minlash dolzarb vazifa etib qo‘yilgan.

Adliya vazirligi tomonidan ham ushbu vazifa doirasida qator ishlar olib borilyapti, jumladan, faqatgina normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari ekspertizadan o‘tkazilibgina qolmay, balki vazirlik tashabbusi bilan amaldagi qonunchilik hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilish ham davom etmoqda.

Shu munosabat bilan “Milliy rejim”, ya’ni mahalliy va chet ellik ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchilar orasida kamsitilmaslikni ta’minlash, so‘g‘lom raqobat muhitini yaratish hamda milliy intellektual mulk tizimini jahon talablarga moslashtirish maqsadida 2024 yil 15 fevralda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim



qonun hujjatlariga O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” qonun qabul qilindi².

Ushbu qonun bevosita milliy qonunchilikni JST bitimlariga moslashtirishga yo‘naltirilgan va intellektual mulk, reklama, dori vositalari va farmatsevtika faoliyati, shuningdek, davlat bojiga oid qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni ko‘zda tutadi.

Shuningdek, qonunchilikda milliy intellektual mulk tizimini JSTning Intellektual mulk huquqining savdo bilan bog‘liq jihatlari to‘g‘risidagi bitimi, ya’ni TRIPS bitimi talablariga muvofiqlashtirish nazarda tutilgan.

Mazkur qonun qabul qilingunigacha bo‘lgan davrda davlat boji miqdorlari xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 10 baravari miqdorida, mahalliy yuridik shaxslar uchun esa BHMning 1 baravari miqdorida o‘rnatilgan edi. Xorijiy va mahalliy tadbirkorlar orasida yuzaga keladigan ushbu farq sog‘lom raqobat tamoyillari buzilishiga sabab bo‘lar edi.

Qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlardan keyin xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va mahalliy korxonalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun o‘rnatilgan davlat boji bir xil miqdorga keltirilgan holda BHMning 1 baravari miqdorida belgilanishi bilan tegishli qonunchilik hujjatlari JSTning Xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh bitimiga muvofiqlashtirildi.

Qonunchiligimizda amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar xorijiy investorlar va rezidentlar uchun teng imkoniyatlar yaratilishi bilan bir vaqtda, iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalar ko‘lami kengayishiga xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, davlat bojlari miqdorlarini kamaytirish bilan dalatimiz o‘z intellektual mulk ob’ektlarini muhofaza qilishni rejalashtirgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun qulay sharoit yaratadi

² <https://adliya.uz/>



Xulosa

Umumiy qilib aytganda O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi mamlakat iqtisodiyotining globallasuvi va xalqaro savdo tizimiga to'liq integratsiyalashuvi yo'lida muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayon yangi eksport imkoniyatlarini ochib, xorijiy investitsiyalarni jalb etishga yordam beradi hamda ichki bozorni liberallashtirish orqali iqtisodiy islohotlarni tezlashtiradi. Biroq, JST talablariga mos kelish uchun O'zbekiston bojxona tartiblarini soddalashtirish, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, davlat subsidiyalari va monopoliyalarni kamaytirish kabi muhim islohotlarni amalga oshirishi lozim. Shuningdek, xalqaro savdo me'yorlariga mos sanitariya va fitosanitariya standartlarini joriy etish, biznes va investitsiya muhiti barqarorligini ta'minlash ham dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. JSTga a'zolik jarayoni murakkab va uzoq muddatli bo'lsa-da, uning natijalari mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti va xalqaro bozor bilan integratsiyasini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Shu boisdan, O'zbekiston JST talablariga mos islohotlarni izchil amalga oshirish orqali o'z iqtisodiy manfaatlarini maksimal darajada himoya qilgan holda global savdo tizimining to'laonli ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dinara Abdikarimova. O'zbekiston va jahon savdo tashkiloti: integratsiya jarayoni va iqtisodiy ta'siri tahlili. - Retrieved from <https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/270>
2. WTO Accession and Economic Development in Central Asia. – Tashkent: UNDP, 2020.
3. www.sciencedirectassets.com (Xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalari)
4. www.wto.org (Jahon savdo tashkiloti veb sayti)